



KOREYS TILINI O'QITISHDA ENANTIOSEMIYALARNING AHAMIYATI

Aliqulova Feruza Abror qizi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
E-mail: aliqulovaf1307@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada koreys tilini o'qitishda enantiosemiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Enantiosemiyalar — qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan so'zlar — til o'rganuvchilar uchun semantik tushunishni chuqurlashtirishda muhim vosita sifatida ko'riladi. Tadqiqotda bu hodisaning o'quvchilarda til sezgirligini shakllantirish va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: polisemiya, enanyiosemiya, semantika, til o'qitish, antonimiya, lingvodidaktika.

Har qanday muloqotning asosiy maqsadi axborot almashinuvidir, uni yetarlicha tushunish xabarning mazmuniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan to'siqlarni hisobga olishni talab qiladi. Chet tilidagi muloqotni o'rganish jarayonida o'rganilayotgan tilning lug'at boyligini bilish, faol va to'g'ri foydalanishni qamrab oluvchi leksik kompetensiyani shakllantirish juda muhim vazifadir. So'z ma'nosini tushunishga ko'proq e'tibor berish talab qilinadi, chunki so'z ma'nosini to'la bilish berilgan ma'lumotni to'g'ri tushunilishi va nutqda to'g'ri qo'llay bilish bilan uzviy bog'liq. Semantik o'rganishning eng murakkab jarayonlaridan biri enantiosemiya bo'lib, koreys tilini o'rganuvchilarni muloqot jarayoniga to'liq jalb qilish uchun ushbu hodisani tushuntirish kerak bo'ladi.

Koreys tilini o'rganish jarayonida enantiosemiya hodisasi til bilimini oshirish, muloqot ko'nikmasini yaxshilash, madaniyatga xos nozikliklarni tushunish, adabiy asarlardagi o'ziga xosliklarni anglashga yordam berish jihatidan muhim. Ya'ni, til o'rganish jarayonida enantiosemiya qimmatli lingvistik hodisa bo'lib xizmat qiladi, u nafaqat til o'rganishni boyitadi, balki madaniy tushunishni kengaytiradi va kommunikativ kompetensiyani oshiradi



Polisemantik soʻzlar nafaqat chet tilida soʻzlashuvchilar uchun, balki ona tilida soʻzlashuvchilar uchun ham tushunilishi qiyin, chunki maʼlum bir birlikning barcha maʼnolarini bilmaslik maʼlumotni tushunish va muloqot qilishga toʻsqinlik qiladi [1]. Polisemiyaning maxsus koʻrinishi boʻlgan enantiosemik birliklarning qarama-qarshi maʼnolaridan biri soʻzlovchining maqsadi va matnga koʻra yuzaga chiqadi. Enantiosemik birliklarni oʻrganish jarayonida, oʻquvchilar soʻz maʼnosining anglashinuvi va farqlanishiga muloqot vaziyati, intonatsiya, soʻzning leksik muhiti, va eng birinchi navbatda matn taʼsir koʻrsatishini eʼtiborga olishlari kerak. Bunday turdagi leksikalarni oʻrganishda esa koreys tilidagi lugʻatlar bilan batafsil ishlab chiqish talab etiladi. Chet tili leksikasini oʻqitishning texnologik tomoni koʻpincha leksik birliklarning semantizatsiyasi bilan bogʻliq [2]. Uslubiy adabiyotlarda soʻz maʼnosini ochishning turli usullari berilgan:

- 1) alohida iboralar usuli;
- 2) hikoya qilish usuli;
- 3) munozara elementlari bilan hikoya qilish usuli;
- 4) muhokama qilish usuli;
- 5) “case-study” usuli;
- 6) soʻz bilan yordamsiz tanishish usuli. Soʻz maʼnosini ochish uslubini tanlash maʼlum omillarga bogʻliq, xususan:
 - a) turga kiritilgan soʻzlar soni;
 - b) soʻzlarni turkumga yigʻish mumkin yoki mumkin emasligi;
 - d) soʻzlarning lingvistik va boshqa oʻziga xosliklari;
 - e) til oʻrganish darajasi;
 - f) oʻquvchilarning oʻrganish qobiliyatlari [3].

Koreys tilini oʻqitish metodikasi anʼanaviy ravishda soʻzlarning maʼnosini aniqlashda tarjima qilinmaydigan va tarjima qilinadigan usullardan foydalanadi. Tarjima qilinadigan usulga oʻz-oʻzidan leksik birlikni koreys tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilishni kiritish mumkin. Tarjima qilinmaydigan usullar esa quyidagilar:

1. Matnga koʻra soʻz maʼnosini aniqlash.

영희: 자꾸 말해 미안한데 모둠 발표 자료 좀 줄래?

민수: 너 빗쟁이 같다. 나한테 자료 맡겨 놓은 거 같네.



영희: 이틀 뒤에 발표 사전 모임이라고 금방 문자 메시지가 왔는데 지금 또 왔어. 근데 빗쟁이라니, 내가 언제 돈 빌린 것도 아니고...

민수: 아니, 꼭 빌려준 돈 받으러 온 사람 같다고. 자료 여기 있어. 가현이랑 도서관에 같이 가자. 아까 출발했다니까 금방 올 거야.

영희: 그래. 발표 끝난 뒤에 다 같이 밥 먹자 [4].

Yonghve: Bu haqida hadeb qaytarayotganim uchun xijolatdaman, lekin menga guruh taqdimoti materiallarini bera olasanmi?

Minsu: Qarzdorga o'xshaysan-a. Xuddi taqdimot materiallarini tayyorlashga men javobgardek.

Yonghve: Ikki kundan keyin dastlabki yig'ilish bo'lishi haqida boyagina xabar kelgandi, hozir yana keldi. Lekin qarzdor deganingni tushunmadim, men qachon pul olganimni ham bilmayman-ku...

Minsu: Yo'q, xuddi pulini berib qaytarib olishga kelgan odamga o'xshaysan dedim. Taqdimot materiallari mana. Kahyon bilan birga kutubxonaga boraylik. Boya chiqib ketgandi, bir ozdan so'ng qaytib qolsa kerak.

Yonghve: Mayli. Taqdimotni tugatganimdan keyin hammamiz birga ovqatlanaylik.

Minsu tilga olgan "qarzdor" "boshqalarga qarz beruvchi shaxs", Yonghve tilga olgan "qarzdor" esa "boshqalardan qarz oluvchi shaxs" degan ma'noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, "빗쟁이" so'zining ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi munosabatda. Shuningdek, Yonghve aytgan "금방" "nutqiy vaziyatdan biroz oldin", Minsu aytgan "금방" esa "nutqiy vaziyatdan biroz keyin" ma'nosida qarama-qarshi munosabatlarga ega. Bunda so'z ma'nosi zamon qo'shimchalariga ko'ra anglashiladi.

2. Chet tilida sinonimlar, ta'riflar va tushuntirishlardan foydalanish.

Masalan, 과언하다 so'zining ma'nosini aniqlashda 과언하다 – 말수가 적다 (gapi kam), 성격이 뚱하다 (xarakteri kamgap); 과언하다 – 지나치게 말을 하다 (haddan ortiq ko'p gapiradigan), 수다스럽다 (sergap) izohlari va sinonimlaridan foydalanish mumkin.



3. Enantioseмик birliklarning ma'nolari uchun antonimlarni tanlash.

수업 (dars) so 'zi 가르침을 받다 (ta' lim olmoq) va 가르침을 주다 (ta' lim bermog) ma' nolari o 'rtasida zidlanadi;

4. Etimologik tahlil. Masalan: 양반 - tarixda hukmron tabaqa sinflaridan biri bo 'lgan yangbanlar madaniyatli, odob-axloqli bo 'lib, xalq manfaatlari uchun xizmat qilganlar. Aynan shu sababli ushbu so 'z bugungi kungacha o 'zining ijobiy - "madaniyatli, axloqli" ma'nosini saqlab qolgan. Ammo, Choson sulolasi qulagach, mamlakatda vazifasini suistemol qiluvchi mansabdorlar ham ko'payib, ularga nisbatan xalq orasida nafrat kuchaygan. Natijada so'z salbiy ma'no kasb etgan. Yangban tushunchasining Choson sulolasining oxirida va yapon mustamlakachilik davrida sezilarli darajada o'zgarmasligining iloji yo'q edi. Ushbu davrda yangbanlar orasida soxta qaydlardan foydalanish, davlat lavozimlarini sotib olish va sotish, hokimiyat nasabnomalarini soxlatalashtirish kabi holatlar kuzatilgan. Bu holat Choson sulolasi oxirida an'anaviy ijtimoiy-siyosiy tizim qulagach yanada jiddiylashdi. Endilikda oddiy xalq orasida yangbanlarga nisbatan "u yangban", "bu yangban" sifatida mensimay munosabat qilish holatlari ko'paydi. Ammo ushbu qarashlar "yangban" tushunchasining asl ma'nosiga mutlaqo zid".

5. O'rganilgan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak bo'lgan lug'at tarkibi.

O'quvchi ongida yangi so'z va uning semantik jihatlarini mustahkamlash uchun quyidagi leksik-semantik mashqlardan foydalanish mumkin:

1. O'rganilayotgan birlikning semantik o'ziga xosligini va leksik mosligini aks ettiruvchi so'z birikmalari va gaplar tuzish. Masalan, o'quvchilarga quyidagicha vazifa berilishi mumkin: Misoldan foydalanib, quyidagi so'zlar bilan bir yoki ikkita so'z birikmasini tuzing.
2. Mavzuga oid so'z guruhlarini tuzish. Masalan, bunda o'quvchilarga so'zning har bir qarama-qarshi ma'nosi uchun sinonimlarni topish vazifasi berilishi mumkin.
3. Berilgan so'zlar yordamida cheklangan hajmli alohida jumlar yoki matnlar tuzish.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

Xulosa qilib aytganda, enantiosemiya tilda doimo mavjud bo'lgan hodisa bo'lib, u ko'p ma'noli birliklarni talqin qilishda noaniqliklarni yuzaga keltirib, bu chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida eng katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va shu bilan tilning aloqa vositasi sifatida samaradorligini pasaytiradi. Enantiosemiya leksikosemantik munosabatlarning alohida turi bo'lib, ona tilida so'zlashuvchilar nutqida keng namoyon bo'lganligi sababli, koreys tilini o'qitishning zamonaviy metodologiyasi ana shunday lingvistik hodisaga yo'naltirilishi kerak, chunki enantiosemiya har doim til o'rganuvchilarning muloqot talablari ro'yxatida mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zimina M. V. Problems of language consciousness in modern linguistics // Linguistics, linguo-didactics, theory of translation: urgent issues and perspectives of study. In Proceedings of International Scientific and Practical Conference Cheboksary: Chuvash State University. – Cheboksary, 2015. – 48-52 p.
2. Lyulyaeva N. A. Algorithmization of foreign language teaching in higher school // Problems of modern pedagogical education. – 2017. – 55–73 p.
3. Shamov, A. N., Guseva, L. V. The role of evaluation tools kit in recording of foreign language learning results // Advances in Intelligent Systems and Computing. 2018. – 203–209 p.
4. <https://blog.naver.com> 단어내적반의어